



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 7-sinflar uchun*  
*I yarim yillik jahon tarixi fanidan*

# **DARS**

# **ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 7-sinf jahon tarixi fanidan I yarim yillik  
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	German qabilalari va Rim imperiyasi	1		
2.	Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari	1		
3.	Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari	1		
4.	Britaniyadan Angliyaga	1		
5.	Muqaddas Rim imperiyasi	1		
6.	Vizantiya: G‘arb va Sharq orasida	1		
7.	Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi	1		
8.	Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi	1		
9.	<b>BSB – 1. Amaliy topshiriq (50 ball)</b>	1		
10.	Yangi din beshigi	1		
11.	Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi	1		
12.	Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi	1		
13.	Saljuqiylar davlati	1		
14.	Saljuqiylar davlati	1		
15.	<b>CHSB -1. (40 ball)</b>	1		
16.	Mo‘g‘ullar davlati	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## **Mavzu: German qabilalari va Rim imperiyasi**

### **Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** darsda yangi tarix voqealari bilan, o'rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishtirish. Jahon va O'zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini o'qib o'rganish. Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko'ra, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida O'rta asrlar davri boshlanishi to'g'risida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o'zaro tushuntirish. Dunyoning turli hududlarida o'ziga xos o'rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keloshi, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'lish. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil haqida tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarga jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o'rgatish, bu davrda dunyoda katta o'zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash:

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalarga rioya qilish.

#### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: kompetensiyasi**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.


**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

### **Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

Rim imperiyasining shimoliy hududlarida yashagan german qabilalarining ko‘chishlari (milodiy IV–VI asrlar) Yevropa tarixida muhim voqealardan biri bo‘ldi. Bu qabilalar haqidagi ilk yozma ma‘lumotlar Yuliy Sezarning “Galliya urushi haqida xotiralar” va Rim tarixchisi Korneliy Tatsitning “Germaniya” asarlarida keltirilgan. German qabilalari Yevropaning shimolida hamda Reyndan Elba daryosigacha bo‘lgan hududlarda yashashgan. Ular baland bo‘ylari, ko‘k ko‘zlari, qizg‘ish sochlari, jangovarlik va uddaburonliklari bilan janubiy xalqlardan ajralib turardi. Germanlarning mustahkam hamda bir-biriga yaqin qurilgan qishloqlari bo‘lmagan. Har bir oila o‘tloq va to‘qaylar bilan o‘ralgan alohida xo‘jalikda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Urug‘chilik jamoasi darajasida yashagan germanlarda yerga nisbatan jamoa yer egaligi mavjud bo‘lib, urug‘ jamoalari hamkorlikda o‘rmondagi daraxtlarni kesib, yangi yerlar ochganlar. Yerga avval oddiy yog‘och so‘qa yordamida ishlov berishgan, yerni o‘g‘itlashmagan. Keyinchalik almashlab ekish usuli hamda omochdan temir plugga o‘tilishi mehnat unumdorligining oshishi, hosilning ortishiga olib kelgan. Ular hayvonlar terisidan kiyim tikib kiyishgan, qilich, qalqon, bolta va nayzalar bilan qurollangan, urush va ov qilishni yaxshi ko‘rishgan. Kundalik hayotlarida esa nondan ko‘ra sut, pishloq va go‘shetni ko‘proq iste‘mol qilganlar. Hunarmandchilikda asosan qurol-yarog‘, asbob-uskunalar, kiyim-kechak va idishlar ishlab chiqarganlar. Shu tariqa ularda kulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik, teri va yog‘ochga ishlov berish sohalari rivojlangan. Ular temir, oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin qazib olishni ham bilishgan. Qadimgi Rim bilan savdo-sotiq qilish german qabilalarining hayotida muhim rol o‘ynagan. Ular rimliklarga qullar, chorva mollari, teri, qahrabo yetkazib berishgan bo‘lsa, rimliklar ularni sopol, shisha, bronza idishlar, oltin va kumush taqinchoqlar, qurollar va qimmatbaho matolar bilan ta‘minlaganlar.



**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Rim imperiyasi o‘zining kuch-qudrat cho‘qqisiga qachon va qanday erishgan?
2. Qadimgi dunyoning qanday imperiyalarini bilasiz?

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 (imzo) (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** darsda yangi tarix voqealari bilan, o'rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishtirish. Jahon va O'zbekiston xalqlarining qadimgi tarixini o'qib o'rganish. Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko'ra, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida O'rta asrlar davri boshlanishi to'g'risida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o'zaro tushuntirish. Dunyoning turli hududlarida o'ziga xos o'rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keloshi, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'lish. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil haqida tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarga jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o'rgatish, bu davrda dunyoda katta o'zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: kompetensiyasi**

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

- frank qabilalari, qirollikning tashkil topishi va qirol Xlodvig;
- davlat boshqaruvi hamda xristianlikning qabul qilinishi;

German qabilalari barpo etgan davlatlar orasida mustahkam va uzoq yashagani Franklar qirolligi bo'ldi. Frank qabilalari dastlab Reyn daryosining quyi qismida yashaganlar. Ular ham boshqa german qabilalari singari urug'-qabila tuzumida yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Talonchilik urushlari franklarning ham mulkiy tabaqalanishini tezlashtirib, harbiy zodagonlar va drujinalarning ta'sirini kuchaytiradi. Franklarning V asr o'rtalaridan Rim imperiyasining ularga qo'shni hududlari – Sena va Luara daryolari havzalariga tahdidlari kuchaya boradi. Franklar davlati Shimoliy Galliyada barpo etiladi. Uning asoschisi Meroveylar urug'idan chiqqan, Sali franklari yo'lboshchisi Xlodvigbo'lgan. Uning qo'shini 486-yili Suasson shahri yaqinida Rim qo'shinini yengadi, so'ngra vestgotlarni bo'ysundirib, Janubiy Galliyani ham egallaydi. Meroveyning nabirasi Xlodvig franklarning ilk qirolligi – Merovinglar sulolasiga asos soldi. U taxtga da'vogarlarning barchasini bartaraf etib, xalq yig'inlarini chaqirmay qo'yadi. Qirol saroyi boshqaruv markazi hisoblangan. Qirollikning harbiy kuchi ko'p sonli drujina bo'lgan. Viloyatlarni boshqarish graflarga topshirilgan.

Franklar Galliyani istilo qilar ekanlar, mahalliy rim-gall zodagonlarining yer-mulklariga tegmaydilar. Ko'p sonli bo'lmagan franklarga Rim imperatoriga tegishli va bo'sh yotgan yerlar bo'lib beriladi. Natijada franklar hokimiyatini tan olgan mahalliy aslzodalar Xlodvigga mamlakatni boshqarishda yordam berib, asta-sekin frank zodagonlari bilan qo'shilib ketadilar. Franklarda davlat aholisi aralash – lotin-german tilida so'zlashganlar, u keyinchalik fransuz tilining asosiga aylanadi. Yozish uchun faqat lotin tili qo'llanilgan. Franklarning majusiylik (ko'p xudolik) dinlari ularni Galliyada hukmronlik qilishlariga deyarli yordam bermagan. Aholi orasida yuqori nufuz va ta'sirga ega bo'lgan xristian cherkovining Frank yetakchilariga katta yordam berishi mumkinligini anglashgan. Cherkovning har qanday hokimiyat xudodan degan aqidasi ham qirolga ma'qul kelgan. Xlodvig yangi dinni qabul qilishi orqali davlat boshqaruvida rim-gall aholisini birlashtirish mumkinligini tushungan. Qirol 496-yili Rim cherkovi tartiblari bo'yicha xristian dinini qabul qiladi. So'ngra qirol drujinasi va oddiy franklar ham qabul qilishadi. Bu tadbir qirol hokimiyati va Rim papasi (katolik cherkovining boshlig'i) boshchiligidagi g'arbiy cherkov ittifoqini ta'minlaydi.



#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Benefitsiy islohotining maqsad va sabablarini aniqlang.
2. Islohotning mazmunini tavsiflang.
3. Olingan natijalarni tarix yon daftar changizga jadval tarzida kiriting. V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**34 listdan iborat 7-sinf jahon tarixi fanidan I yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**